



KELTIRASIZ
HAVASIM

**PO‘LAT
MO‘MIN**


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O)6

M - 99

Mo'min, Po'lat

Keltirasiz havasim: she'rlar / Po'lat Mo'min. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 128 b.

ISBN 978-9943-27-972-8

Po'lat Mo'min she'rlarida bolalarga xos beg'uborlik bor, har satri soddalig-u samimiylikdan so'zlaydi. Sersavol bolakayning qiziquvchanligi-yu arazchi qizaloqning tabiati ham aynan Po'lat Mo'min she'rlariga jo bo'lgan. Shoir she'rlarini bola bo'lib yozganiga shubha qilmaymiz. Satrlarning ravonligi ikki bolakayning o'zaro suhbatini eslatadi. Ijodkor, asosan, insoniy fazilatlar, tabiat hodisalari, atrofimizdagi borliqning bolalarga qiziqarli jihatlarini topib qalamga oladi. She'rlarni o'qir ekanmiz, ularni yod olgimiz, sinfdosh-u tengdoshlarimizga aytib bergimiz keladi.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O)6

ISBN 978-9943-27-972-8

© Po'lat Mo'min, «Keltirasiz havasim». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

SEVIMLI BOLALAR ADIBI

Po'lat Mo'min shoir, dramaturg sifatida adabiyot ixlosmandlariga, xususan, kichik yoshdagi kitobxonlarimizga yaxshi tanish. Adib 1922-yil 24-dekabrda Toshkent shahrida tavallud topgan.

Po'lat Mo'min yoshligidanoq adabiyotga havas qo'ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan kezlardananoq adabiyot to'garagida faol qatnashdi. Buyuk yozuvchilarimiz asarlarini qunt bilan o'qidi, o'rgandi. Badiiy ijodga bo'lgan havas yosh iqtidor egasini Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining (1944) o'zbek tili va adabiyoti fakulteti tomon yo'lladi. Tahsilni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o'qishni davom ettirdi. 1951–1952-yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida bolalar adabiyoti bo'limida, 1954–1960-yillarda Yozuvchilar uyushmasida, 1962–1964-yillarda Madaniyat Vazirligi qoshidagi San'at boshqarmasida muharrirlik qilgan.

Bolalar uchun ijod qilish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun qobiliyat va istakning o'zi kamlik qiladi. Buning uchun bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu gapni qanday izohlash mumkin? Bunda bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbini o'qiy oladigan, nozik ta'b egasi, bola tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon,

kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil hamda dono bo'lsin, degan ma'no tushuniladi.

Mana shunday fazilatlarini butun umr o'ziga hamroh qilgan adibning birinchi she'rlar to'plami 1949-yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etilgan. Keyinchalik «Hunardan unar», «To'g'ri o'sgan gul bo'lar», «Aql qayerda bo'lar», «O'rinbosarlar», «Oltin nay», «Bir yarim Karim», «Endi adashmaydi», «Barcha bola do'st bo'lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon ertak aytar», «Chang yutar botir», «Oftob va odob», «Yaxshilarga o'xshasam», «Bu juda soz», «Eson va Omon», «Oltmish olti oltin qo'l», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo'l», «Bolajon – bolajonim», «Bo'ladigan bolalar» she'riy to'plamlari, «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy», «Bahodirning botirligi», «Oq fil yo'qoldi», «Suqatoy-Konfetvoy», «Ona bolam deydi...» kabi ertaklari, sahna asarlari yosh o'quvchilarimizning adabiyotga qiziqishi, mutolaaga muhabbatini oshirishda yo'lchi yulduz bo'ldi. Qolaversa, bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqlari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. E'tiborlisi, Po'lat Mo'min asarlarining bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinib, butun dunyo bolalari qalbiga kirib bordi.

Shoirning «Indamadi», «Onadur ul, onadur», «Ey, muhabbat», «Senga bir gap aytaman» kabi o'nlab she'rlari allaqachon qo'shiqqa aylanib, xalqning dilidan chuqur joy olgan.

Sevimli adibimiz 1992-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

Po'lat Mo'min 2004-yilda vafot etgan.

Muharrirdan

BOLAJON, BOLAJONIM

Ey, soʻzlari biyronim,
Chopqillagan jiyronim.
Erkatoyim, polvonim,
Bolajon, Bolajonim.

Sizlar lola yonoqsiz,
Chin koʻngildan inoqsiz.
Bulbul-u qarqunoqsiz,
Bolajon, Bolajonim.

Siz kelajak egasi,
Baxt bogʻimiz mevasi.
Chamanlarning jilvasi,
Bolajon, Bolajonim.

Tezda oʻsib, uningiz,
Shod oʻtsin har kuningiz.
Kulib tursin gulingiz,
Bolajon, Bolajonim.

ONA TILIM – ONA TILIM

Tilim chiqqan
So'zing bilan,
Dilim ravshan
O'zing bilan.
Faxr etadir
Xalqim – elim,
Ona tilim – ona tilim.
Oq-qorani
Taniganim,
Senga bog'liq
Jonim-tanim.
Kitoblarim
Bergay bilim,
Ona tilim – ona tilim.
Onam aytgan
Allalarni,
To'y, bayramda
Yallalarni,
Eshitganim
Ertak-naqlim –
Ona tilim – ona tilim.
Otajonim
O'gitidan,
Volidamning
Oq sutidan,
Oldim bahra,
Yayrar ko'nglim –
Ona tilim – ona tilim.
Yagonasan
Vatan misol,
Sendan topdim
Baxt-u iqbol,

Xazinamsan
Qalbim-dilim –
Ona tilim – ona tilim.
Har so‘zimda
Olam ma‘no,
Bo‘lavergin
Ravon – burro,
Bamisoli
Tilda bolim –
Ona tilim – ona tilim.
Navoiydan
Merosimsan,
Tarona-yu
Ovozimsan,
Ustozlardan
Oldim ta‘lim,
Ona tilim – ona tilim.
Qo‘shiqlarim
Yangrayversin,
Chin do‘stlarim
Anglayversin.
Boyitadir
Seni naslim –
Ona tilim – ona tilim.
O‘stirgaysan
Tafakkurim,
Senga ming bor
Tashakkurim.
Yuragimda
Zavqim lim-lim,
Ona tilim – ona tilim.
Pastlar seni
Yerga urdi,
O‘zlarining

Ketdi burdi.
Bo'lmading hech
Tilim-tilim,
Ona tilim – ona tilim.
Yassaviyning
Xitobisan,
Qodiriylar
Kitobisan,
Ey, o'zimning
Mustaqilim,
Ona tilim – ona tilim.
Jonimda yur,
Qonimda yur.
Tinglab, so'zlab
Qilay huzur.
Sen bilan shod
Kun, oy, yilim,
Ona tilim – ona tilim.
Sendan ayon
O'zbekligim.
Yaxshilarga
Ko'zbekligim.
Kulgan yana
Istiqlolim –
Ona tilim – ona tilim.

* * *

Ey, aziz kitobxonim,
Yetganda kuch-imkonim,
Sizga she'rdasta tuzdim,
Qarzimni biroz uzdim.
Ochig'i, ko'pdir qarzim,
(lekin sira yo'q arzim)

Qolmayin deb ginada,
Quduq qazdim ignada.

To'qidim qo'shiq, ertak,
Bular emasdir ermak.
Erinmay o'qib chiqing,
Yaxshisi, mag'zin chaqing.
Eslab yursangiz uni,
Kerak bo'lar bir kuni...

Etmang deb aslo taqlid,
Yomonni qildim tanqid.
Ko'p o'rinda maqtadim,
Yaxshilikdir maqsadim.

Siz bergan zavqdan toshdim,
Kitobim-ko'nglim ochdim.

KERAKDIR MASHQ - O'RGANISH

Taxtachaga oddiy mixni
Qoqolmadi bir bola,
Ko'rinishi ajabtovur,
Misoli botir bola.

Bolg'ani bir urgan edi,
G'iz otilib ketdi mix.
Yoki bolg'a tegdimikan?
Qo'lin ushlab dedi "eh".

Taxtadami deya ayb
Ko'rdi u yoq bu yog'in.
Bolg'a ham soz, mix ham o'tkir
Qo'ying gapning u yog'in...

Har bir ishga mashq kerakdir,
Zarur uquv, o'rganish.
Bilar-bilmas ish tutganga
Hech gap emas o'rtanish.

SALOM BERGANLAR

Salomat bo'lsin
Salom berganlar.
Ko'ngil bog'idan
Gullar terganlar.
Bobolariga
«Assalom» degan,
Momolariga
«Achchalom» degan,
Tani-joningiz
Sog' bo'lsin, deya,
Ko'nglingiz doim
Chog' bo'lsin, deya
Salom berganlar
Salomat bo'lsin.
Ishlari doim
Alomat bo'lsin
Eng a'lo ular,
Eng dono ular.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/2699> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2699> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2699>